

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI AKADEMIK
LITSEYLAR O'QUVCHILARIGA STIPENDIYA VA GRANTLAR AJRATILADI**

Mamadiyev Abror Abduraxmon o'g'li

abormamadiyev94@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Uzluksiz ta'lim boshqarmasi bosh mutaxassisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13325039>

Annotatsiya. Maqolada Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylar iqtidorli o'quvchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ma'naviy axloqiy fazilatlarini yuksaltirish hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini rag'batlantirish, stipendiya va grantlar uchun belgilangan asosiy minimal talablar, stipendiya va grantlar ajratish tartibiga oid masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Stipendiya, grant, moliyaviy yordam, nomzod, sertifikat, minimal talablar, to'lov.

**SCHOLARSHIPS AND GRANTS ARE AWARDED TO STUDENTS OF ACADEMIC
LYCEUMS UNDER THE TASHKENT STATE LAW UNIVERSITY**

Abstract. In the article, the main minimum requirements for scholarships and grants are defined for all-round support of talented students of academic lyceums under the Tashkent State Law University, to realize their potential, to improve their spiritual and moral qualities and to encourage their active participation in social life. , issues related to the procedure for allocating scholarships and grants were analyzed.

Keywords: Scholarship, grant, financial aid, candidate, certificate, minimum requirements, payment.

**СТИПЕНДИИ И ГРАНТЫ ПРИСУЖДАЮТСЯ УЧАЩИМСЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ
ЛИЦЕЕВ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ.**

Аннотация. В статье поставлены основные цели по всесторонней поддержке талантливых учащихся академических лицеев Ташкентского государственного юридического университета, реализации их потенциала, повышения их духовно-нравственных качеств, поощрения их активного участия в общественной жизни. Проанализированы вопросы стипендий и грантов, связанные с минимальными требованиями, порядком распределения стипендий и грантов.

Ключевые слова: стипендия, грант, финансовая помощь, кандидат, сертификат, минимальные требования, оплата.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5987-son Farmoniga muvofiq Toshkent davlat yuridik universitetiga universitet huzuridagi akademik litseylarning iqtidorli o'quvchilariga stipendiya va grantlar ajratish huquqi berilgan.

O'quvchilar uchun stipendiya va grantlar ko'plab maqsadlarda taqdim etiladi. Ular o'quvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Stipendiya va grantlar ajratishdan maqsadlar:

moliyaviy yordam – stipendiyalar va grantlar o‘quvchilarga o‘qish xarajatlarini qoplashga yordam beradi, shu jumladan o‘qish to‘lovlari, yashash xarajatlari va o‘quv materiallari uchun;

ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish – ular ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ayniqsa, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan o‘quvchilar uchun;

iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish – stipendiyalar va grantlar iqtidorli va qobiliyatli o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning ta’lim va ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan.

Stipendiya – odatda o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari o‘quvchilariga, shuningdek aspirantlar va doktorantlarga o‘qish uchun haq to‘lash va ba’zan oylik nafaqa berish orqali ko‘rsatiladigan muntazam moliyaviy yordam¹ sanaladi.

Akademik litseylarning iqtidorli o‘quvchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti rektorining 2024-yil 12-avgustdagi 142-um-son “Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari hamda universitet huzuridagi akademik litseylarning o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litseylarning iqtidorli o‘quvchilariga Toshkent davlat yuridik universiteti stipendiyasini tayinlash va grantini ajratish to‘g‘risida nizom tasdiqlandi.

Mazkun nizomga muvofiq endilikda har yili har bir akademik litseyning 2 nafardan o‘quvchisiga universitet stipendiyasi tayinlanadi va 2 nafardan o‘quvchisiga universitet granti ajratiladi.

Universitet stipendiyasi – akademik litseylarning 2-bosqichida ta’lim olayotgan iqtidorli o‘quvchilariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan qat’i nazar oyma-oy to‘lanadigan moddiy rag‘bat.

Universitet granti – to‘lov-shartnoma asosida akademik litseylarning 2-bosqichida ta’lim olayotgan iqtidorli o‘quvchilariga bir yillik o‘qishi uchun to‘lanadigan mablag‘ning **50 foizidan** ozod qilishga qaratilgan moddiy qo‘llab-quvvatlash (rag‘bat) turi.

Ayni bir o‘quvchi universitet stipendiyasi va grantiga nomzod bo‘lishi mumkin emas.

Nomzod – akademik litseylar ishchi guruhlariga belgilangan muddat va tartibda tegishli hujjatlarni stipendiya tayinlash yoki grant ajratish uchun taqdim etgan akademik litsey o‘quvchisi.

Bunda, **universitet stipendiyasi** har o‘quv yili (sentyabr–iyun oylari) uchun bir marta belgilangan miqdorga qat’iy rioya qilgan holda tayinlanadi. Universitet stipendiyasi o‘quv yili mobaynida oyma-oy to‘lab boriladi.

Universitet stipendiyasining miqdori oliy ta’lim muassasalari talabalarining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘rnatilgan stipendiyasi bazaviy miqdorida belgilanadi.

Universitet granti sovrindori akademik litseyda tegishli o‘quv yili to‘lov-kontrakt summasining 50 foizidan ozod qilinadi.

Akademik litseylarda iqtidorli o‘quvchilarga stipendiya tayinlash va grantlar ajratish tanlov asosida amalga oshiriladi.

Tanlov quyidagi ikki bosqichda o‘tkaziladi:

birinchi – akademik litseylar bosqichi

¹ Чиждова В.С. СТИПЕНДИЯ КАК МОТИВИРУЮЩИЙ ФАКТОР ДЛЯ СТУДЕНТОВ // Экономика и социум. 2015. №2-4 (15). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/stipendiya-kak-motiviruyuschiy-faktor-dlya-studentov> (дата обращения: 14.08.2024).

ikkinchi – universitet bosqichi.

Birinchi bosqichda nomzodlar tomonidan tegishli hujjatlar taqdim etiladi va akademik litseylarda shakllantirilgan ishchi guruhi tomonidan dastlabki tarzda ko‘rib chiqiladi va saralanadi.

Ikkinchi bosqichda akademik litseylarning ishchi guruhlari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlarga universitet komissiyasi tomonidan stipendiya tayinlash va grant ajratish bo‘yicha masala ko‘rib chiqiladi.

Universitet stipendiyasini tayinlash va grant ajratish masalasi ko‘rib chiqilayotganda, akademik litsey ishchi guruhi va universitet komissiyasi quyidagi **asosiy minimal talablarni** hisobga oladi:

nomzodning so‘ngi o‘quv yilidagi akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 86 va undan ortiq foizni tashkil qilishi (o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rganilayotgan davrdagi modullar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yig‘indisini o‘tilgan modullar umumiy soniga bo‘lish orqali aniqlanadi);

chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi B1 va undan yuqori darajadagi davlat malaka sertifikatiga yoki chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlardan kamida B1 darajasiga mos keluvchi CEFR (Common European Framework of Reference), IELTS (International English Language Testing System) bo‘yicha 5,0 ball, TOEFL (Test of English as a Foreign Language) bo‘yicha 70 ball yoki TestDaF bo‘yicha TDN3 (Test Deutsch als Fremdsprache für ausländische Studienbewerber) mavjud bo‘lishi;

nomzodning akademik litsey ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki (ma‘naviy-ma‘rifiy va jamoat ishlari, loyihalar va tanlovlarda ishtirok etishi va boshqalar);

nomzodning akademik litseyda o‘rnatilgan ichki tartib qoidalari, odob-axloq qoidalariga rioya etishi va namunali xulq-atvorga egaligi.

Nomzodlar har yili akademik litseylarning ishchi guruhiga **15-25-iyul** kunlari stipendiya tayinlash va grant ajratish masalasini ko‘rib chiqish uchun arizalarni elektron tarzda topshiradilar.

Bunda nomzodlar o‘z arizalariga asosiy minimal talablarni bajarganligini asoslovchi hujjatlarni ilova sifatida taqdim etadi.

Nomzodlar akademik litseylarda shakllantirilgan ishchi guruhlarga asosiy minimal talablarni tasdiqlovchi hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlarni elektron shaklda taqdim etadi:

tegishli namunadagi ma‘lumotnoma-obyektivka (anketa);

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotining tavsiyanomasi;

akademik litseyning ijtimoiy hayoti, o‘quv va ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida faol ishtirok etish va faoliyat samaradorligiga o‘z hissasini qo‘shish bo‘yicha shaxsiy rejasi.

Ishchi guruhlar nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda baholash mezonlariga ko‘ra nomzodlarni universitet stipendiyasi va ta‘lim granti uchun o‘tkaziladigan tanlovning keyingi bosqichiga tavsiya etish yoki rad etish maslasini hal etadi.

Shundan so‘ng, nomzodlarning hujjatlari universitet komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Zarurat yuzaga kelganda nomzod suhbat uchun universitet komissiyasiga chaqirilishi mumkin.

Universitet komissiyasi tomonidan universitet stipendiyasini tayinlash va grantini ajratish masalasini ko‘rib chiqishda nomzodlarning natijalari teng bo‘lgan taqdirda to‘liq davlat ta‘minotida

bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi hamda 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan nomzodlarga ustunlik berilishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, akademik litseylar o'quvchilariga stipendiya va grantlar ajratilishi iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ma'naviy axloqiy fazilatlarini yuksaltirish hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5987-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida Adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida" PF-80-son Farmoni.
3. Mamadiyev, A. (2024). TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI AKADEMIK LITSEYLAR O'QUVCHILARINING BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH TARTIBI BELGILANDI. Modern Science and Research, 3(8), 8-12.
4. Чиждова В.С. СТИПЕНДИЯ КАК МОТИВИРУЮЩИЙ ФАКТОР ДЛЯ СТУДЕНТОВ // Экономика и социум. 2015. №2-4 (15).
5. Темнов Эдуард Сергеевич, Генералова Яна Юрьевна Некоторые аспекты совершенствования законодательства в сфере образования в части стипендиального обеспечения // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2018. №3-2.
6. lex.uz
7. cyberleninka.ru
8. grantlar.uz